

“SHAFTOLI VA PO‘RTAXOL” HIKOYASIDA UMUMINSONIY HISLAR

Shahriddinova Shahrizoda Zayniddin Qizi – ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O. Genrining “Shaftoli va Po‘rtaxol” hikoyasi tahlil qilinadi. Hikoya oddiy insonlarning hayot tarzi, mehr-muhabbati, sadoqati va ichki dunyosini realistik va badiiy tarzda tasvirlaydi. Asarda insonlar orasidagi samimiyat, hurmat va mehr-muhabbat, shuningdek, kichik mehr-izzatlar oiladagi mustahkam munosabatlarning poydevori sifatida ko‘rsatiladi. Hikoyaning kutilmagan yakuni va soddaligi yozuvchining uslubiy mahoratini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: qisqa hikoya, samimiyat, mehr-muhabbat, kutilmagan yakun.

Annotation: This article analyzes O. Henry’s short story “The Peach and the Pomegranate”. The story realistically and artistically depicts the life, emotions, loyalty, and inner world of ordinary people. It highlights sincerity, respect, and love between individuals, showing how small gestures of affection can form the foundation of strong family relationships. The story’s unexpected ending and simplicity demonstrate the author’s stylistic mastery.

Keywords: short story, sincerity, love, unexpected ending.

Аннотация: В данной статье анализируется рассказ О. Генри «Персик и гранат». Рассказ реалистично и художественно отражает жизнь, эмоции, верность и внутренний мир обычных людей. Особое внимание уделяется искренности, уважению и любви между людьми, показывая, что маленькие проявления заботы являются основой крепких семейных отношений. Неожиданный финал и простота повествования демонстрируют мастерство автора.

Ключевые слова: короткий рассказ, искренность, любовь, неожиданный финал.

XX asr boshlarida Amerika adabiyotida qisqa hikoya janri o'z o'rnini yanada mustahkam egallay boshladi. Ushbu janrning yirik vakillaridan biri sifatida O. Genrining nomi tilga olinadi. O. Genrining asarlarida oddiy insonlarning hayot tarzi, ularning mehr-muhabbati, sadoqati, xiyonati kabi his-tuyg'ulari realistik tarzda tasvirlanadi. Yozuvchi hikoyalarida jamiyatdagi voqealarni hazil, ya'ni yumor va kutilmagan yakunlar orqali o'quvchiga yetkazadi.

“Shaftoli va Po'rtaxol” hikoyasi shunday asarlardan biridir [1]. Unda yozuvchi hayotiy voqeani jamiyatda tez-tez uchrab turadigan oddiy bir holat orqali ifodalaydi. Hikoyaning markazida ikki inson orasidagi munosabat, ularning bir-biriga bo'lgan samimiyati va ichki dunyosi yotadi.

Kichkintoy Mak-Garri yaqinda turmush qurgan rafiqasi bilan birga asaloyida bo'lgan kunlaridan birida, ayoli shaftoli yegisi kelishini so'raydi:

“Azizim, – dedi u, – agar men shaftoli yesam bo'larmidi?”

Kichkintoy Mak-Garri o'rnidan turib, palto va shlyapasini kiyadi. U jiddiy, ko'ngilchan va zehni o'tkir edi. U uzoq vaqt shaftoli qidirib uyga kechiksa ham, ayolining xohishini hurmat qilgan holda bajaradi. Qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, u oxir-oqibat bitta shaftolini topib keladi. Bu voqeada eri ham juda xursand bo'lganini asarni o'qish davomida sezish mumkin.

O'sha paytdagi jamiyatning qiyin sharoitiga qaramay, u ayoliga shaftoli topib berishga muvaffaq bo'ladi. Erkak o'z ayoliga bo'lgan mehr-muhabbatini va sevgisini aniq ifodalaydi. U shaftoli topolmaganda faqat po'rtaxolga yo'l topadi, lekin umidini yo'qotmaydi. Va nihoyat, aynan shaftoli topilganda, uyida uni kutib sog'ingan yosh kelinning ko'zidagi quvonch barcha mashaqqatlarni unutdiradi.

Hikoyaning kutilmagan yakuni shundan iboratki, kelinchak e'tiborsizlik bilan shunday deydi:

“Yaramas kichkintoyim! – oshiqona ming'illadi kelinchak. – Nahotki shaftoli so'ragan bo'lsam? Men jon deb po'rtaxol yegan bo'lardim.”

O. Genri bu oddiy voqea orqali insoniyat uchun muhim bo'lgan tushunchalarni – mehr, sadoqat, sevgi va o'zaro hurmatni tahlil qiladi [2, 83]. Hikoyada inson

tabiatining murakkabligi va samimiyatning doimo qadrlanishi yaqqol namoyon bo'ladi. Kutilmagan yakun va voqealarni realistik, ammo hazil bilan ifodalash yozuvchining mahoratini ko'rsatadi.

Hikoya orqali muallif o'quvchiga shuni anglatadi: oiladagi mehr-muhabbat, samimiyat va sadoqat doimo saqlanishi lozim, shuningdek, insonlarni o'ylashga va tahlil qilishga chorlaydi. O. Genrining asarlarida o'ziga xos yumor va kutilmagan yakun eng asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. "Shaftoli va Po'rtaxol" hikoyasida ham yozuvchi soddaligi, jonli dialoglar va tabiiy ifodalarni qo'llash orqali asarda realizmni ta'minlaydi [3].

Shuningdek, hikoyada insonlar orasidagi mehr, samimiyat va manfaatsizlik dialoglar orqali ochiladi. Erkak qahramonning sabri, ayoliga bo'lgan hurmati va mehr-muhabbati hikoyaning markaziy g'oyasini tashkil qiladi. Yozuvchi voqealarni shunchaki tasvirlamagan, balki kichik harakatlar, dialoglar va qahramonlarning kayfiyati orqali ularning ichki his-tuyg'ularini ochib beradi. Bu esa hikoyani real hayotga juda yaqin qiladi.

O. Genri erkak qahramonning boshidan kechirayotgan voqealarni og'ir yuk sifatida emas, balki sevgi yo'lida sodir bo'ladigan tabiiy harakat sifatida tasvirlaydi [4, 13]. Hikoyadan shuni anglash mumkin: ba'zan kichik mehr, oddiy e'tibor va diqqat oilada eng mustahkam qurol bo'lishi mumkin. Ayolning maqsadi faqat shaftoli emas, balki erining unga bo'lgan hurmatini va e'tiborini his qilishdir. Bu o'quvchilarga shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda moddiy narsalar emas, balki mehr, hurmat va e'tibor muhimdir.

REFERENCE

1. O. Genri. Shaftoli va Po'rtaxol / tarj. S. Saitov. – Toshkent, 2011. – 10 – Son
2. Matchanova M. O. Genri hikoyalari jozibadorligida kinoya va istehzoning o'rni va ularning tarjimada qayta tiklanishi // Research Focus International Scientific Journal. – Uzbekistan, 2024. – P. 83.
3. Smith Alphonso C. Selected stories from O. Henry. – The Odyssey Press, 1906.

4. Saitov S. Dj. O. Genri ijodi va o‘zbek hikoyachiligida insoniy taqdirlar, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi mushtaraklik: dissertatsiya ... PhD. – Buxoro, 2025. – S. 13–14.\
5. Toshtemirovich A. D. TILSHUNOSLIKDA TOVUSHGA TAQLID (ONOMATOPOETIK) NAZARIYASI VA UNING AHAMIYATI //Hamkor konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 14. – C. 781-785.

